

## AZIZ VATANNING AZIZ POSBONLARI

*Normamatova Sadbarg*

*Toshkent viloyati Toshkent tumanidagi MMTB tasarrufidagi 25- umumiy orta ta'lim maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bugungi maqolamizni 14-yanvar Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab, O'zbekiston respublikasi qurolli kuchlari va aziz vatanimizning aziz posbonlari haqida yozishga bag'ishlamoqchiman.

**Kalit so'zlar:** Harbiy hizmat, qurolli kuchlar, favqulotta vaziyatlar vazirligi, suverenitet

Ma'lumki, Mustaqilligimizning ilk yillaridanoq mamlakatimiz mudofaasini kuchaytirish masalasi davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri deb belgilandi. Yurtboshimizning Mudofaa ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risidagi Farmoni bilan bu boradagi ishlarga tamal toshi qo'yildi. Keyinchalik Mudofaa ishlari vazirligiga aylantirildi.

1992 yil 14-yanvar kuni esa mustaqil davlatimiz tarixida yana bir muhim tadbirga qo'l urildi. Respublika Oliy Kengashining "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalari to'g'risida"gi qarori bilan mamlakatimiz hududidagi barcha harbiy tuzilmalar mustaqil O'zbekiston tasarrufiga o'tkazildi. Davlatimiz rahbari tashabbusiga asosan qabul qilingan mazkur hujjat armiyamizni isloh qilishning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqilishiga yo'l ochdi. 1993-yilning 29-dekabrda 14-yanvar jonajon yurtimizda "Vatan himoyachilari kuni" deb e'lon qilindi.

Hozirgi kunda hayotning o'zi Qurolli Kuchlarni boshqarish, rejalashtirish va qo'llash tizimida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalardan keng foydalanish, boshqaruvning informatsion vositalari va harbiy aloqa tizimlarini uyg'unlashtirishni, Qurolli Kuchlarimiz axborot-kommunikasiyalarining raqamli yagona tarmog'ini yaratishni taqozo etmoqda. Milliy armiyamizni bosqichma-bosqich va tizimli ravishda shakllantirishda, avvalo, O'zbekistonning mintaqamizda va hozirgi

dunyoda tutgan geostrategik va geosiyosiy o‘rnini, mamlakatimiz havfsizligiga qarshi qaratilgan jiddiy ichki va tashqi tahdid va xatarlarni, ayniqsa, kuchayib va faollashib borayotgan xalqaro terrorchilik, ekstremizm, tobora ko‘lami kengayib borayotgan narkoagressiya, ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishi kabi balo-qazolarni hisobga olgan holda amalga oshirildi. Armiyamiz jahon harbiy qurilishining eng ilg‘or tajribalarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ayni paytda milliy jangovar an‘analarimizni yuksak sadoqat bilan davom ettirmoqda, shu bilan birga, mintaqamizda ro‘y berish ehtimoli mavjud bo‘lgan harbiy harakatlar va jangovar amaliyotlar ham har tomonlama e‘tiborga olinmoqda. Harbiy o‘quv yurtlarimizdagi ta‘lim tizimi tubdan o‘zgarmoqda, ularda bo‘lg‘usi ofiserlarni tayyorlash va tarbiyalash hozirgi zamon talablariga to‘la mos keladigan, prinsipial jihatdan mutlaqo yangi bo‘lgan o‘quv-texnik va ma‘naviy-ahloqiy asosda yo‘lga qo‘yilgan. Armiya saflariga, avvalombor, mustaqil va suveren O‘zbekistonimizga xizmat qilish, uning manfaatlarini va sarhadlarini, xalqimizning tinch va osuda hayotini himoya qilishga azmu qaror qilgan mard va fidoyi, intellektual jihatdan tarbiya topgan yetuk kadrlar keldi.

O‘tgan davr mobaynida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohatlar tufayli yurtimiz xavfsizligini, sarhadlarimiz dahlsizligini ishonchli himoya qilishga, aholimizning tinch va osuda hayotiga qarshi qaratilgan har qanday g‘arazli urinishlarning oldini olishga qodir bo‘lgan, ixcham, tezkor, tashkiliy jihatdan mukammal, zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta‘minlangan milliy armiyamiz shakllantirildi.

O‘zbekiston respublikasi qurolli kuchlari — O‘zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish, urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish va oldini olish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo‘shilmalar va qismlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasida Mudofaa vazirligi tizimidagi qism va bo‘linmalar, Ichki ishlar vazirligining qorovul qo‘shinlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining harbiylashtirilgan qismlari, Chegara qo‘shinlaridan tashkil topgan.

2022-yilga kelib O‘zbekiston armiyasi jahonning 106 mamlakati qurolli kuchlari o‘rin olgan jahon armiyalari reytingida 54-o‘rinni egallaydi. Bu haqda yangilangan Global Firepower reytingida axborot berilgan.

Global Fire Power (GFP) ma’lumotlariga ko‘ra (ular 2022-yil martiga doir), O‘zbekiston ixtiyorida hozirgi vaqtda 420ta tank, 1215ta BTR (zirhli transport vositasi), 98 ta raketa tizimlari, 70ta qiruvchi samolyot, 65ta vertolyot, xususan, 35ta hujumkor vertolyot va boshqa ko‘plab qurol-aslahaga ega, qurol ko‘tarib, armiyada xizmat qilishi mumkin bo‘lgan aholisi soni esa 15,7 milliondan oshadi. GFP O‘zbekiston haqidagi ma’lumotlarni Markaziy razvedka boshqarmasi sayti, MRBning World Factbook to‘plami ma’lumotlari, „Vikipediya“ va ochiq manbalardagi boshqa ma’lumotlarga asoslanib tuzib chiqqan. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekistondan tashqari Qozog‘iston ham reytingdan o‘rin olgan bo‘lib, GFP uni 80-o‘ringa joylashtirgan. O‘zbekistonga hududiy jihatdan yaqin mamlakatlar orasida Afg‘oniston 76-o‘rinni egallagan, Tojikiston, Qirg‘iziston va Turkmaniston reytingga kiritilmagan. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki aziz vatanimizning har bir o‘g‘loni bizning himoyachimiz, oilalarimiz boshidir. Vatan oiladan boshlanadi. Shunday ekan Vatan himoyachilari kuni nafaqat qurolli kuchlarimizda xizmat qiluvchi o‘g‘lonlarimiz balki barcha yigitlar kunidir. Oilamiz himoyachilari, aziz O‘zbek tuprog‘ining chin qo‘riqchilari, qadriyatlarimizni tutib turgan ustunlarimiz bu kunning chin qahramonidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [https://www.uzpedia.uz/pedia/ozbekiston\\_respublikasi\\_qurolli\\_kuchlari](https://www.uzpedia.uz/pedia/ozbekiston_respublikasi_qurolli_kuchlari)
2. <https://oliymahad.uz/35901>